



SOCIAL MECHANISMS FOR ENHANCING WOMEN'S PARTICIPATION IN THE MAHALLA SYSTEM

Dilovar Isokzhonovna Negmatova

Senior Lecturer, (PhD)

Samarkand State University named after Sh. Rashidov

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: mahalla, mahalla-based approach, women's activity, social mechanism, human capital, targeted policy, entrepreneurship, gender equality, socialization.

Received: 20.06.25

Accepted: 22.06.25

Published: 24.06.25

Abstract: The mahalla, as an immediate social environment, plays a central role in mobilizing citizens, identifying needs, and organizing targeted assistance in the development of women's activity. This article analyzes, from a sociological perspective, the mechanisms aimed at increasing the socio-economic engagement of women within the framework of the mahalla-based working system. It also highlights social mechanisms that encourage women's involvement in areas such as education, vocational training, entrepreneurship, family stability, and participation in public life. Additionally, the article offers recommendations for increasing women's economic activity in rural areas, improving social infrastructure, and enhancing cultural and educational initiatives.

MAHALLABAY ISHLASH TIZIMIDA XOTIN-QIZLAR FAOLLIGINI OSHIRISHNING IJTIMOYIY MEKANIZMLARI

Dilovar Isoqjonovna Negmatova

Katta o'qituvchi, PhD

Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: mahalla, mahallabay yondashuv, xotin-qizlar faolligi, ijtimoiy mexanizm, inson kapitali, manzilli siyosat, tadbirkorlik, gender tenglik, ijtimoiylashuv.

Annotatsiya: Mahalla — ayollarning faolligini rivojlantirishda yaqin ijtimoiy muhit sifatida fuqarolarni safarbar etish, ehtiyojlarni aniqlash va manzilli yordamni tashkil etishda markaziy o'rin tutadi. Mazkur maqolada mahallabay ishlash tizimi doirasida xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini

o'shishga qaratilgan mexanizmlar sotsiologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim, kasb-hunar, tadbirkorlik, oilaviy mustahkamlik, jamoat ishlarida ishtirok kabi sohalarida xotin-qizlarni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy mexanizmlar ochib berilgan. Shuningdek, qishloq joylarda xotin-qizlarni iqtisodiy faollikka jalb qilish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va madaniy-ma'rifiy faoliyatlarni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

СОЦИАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН В СИСТЕМЕ РАБОТЫ МАХАЛЛИ

Диловар Исоқжоновна Негматова

Старший преподаватель, (PhD)

Самаркандского государственного университета

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: махалля, махаллинский подход, активность женщин, социальный механизм, человеческий капитал, целенаправленная политика, предпринимательство, гендерное равенство, социализация.

Аннотация: Махалля — как ближайшая социальная среда играет центральную роль в мобилизации граждан, выявлении потребностей и организации адресной помощи при развитии активности женщин.

В данной статье с социологической точки зрения проанализированы механизмы, направленные на повышение социально-экономической активности женщин в рамках системы махаллинной работы.

Также раскрыты социальные механизмы, способствующие стимулированию женщин в таких сферах, как образование, профессиональное обучение, предпринимательство, семейная устойчивость и участие в общественной жизни. Кроме того, приведены рекомендации по привлечению женщин в сельской местности к экономической активности, развитию социальной инфраструктуры и усилению культурно-просветительской деятельности.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan aholi farovonligini oshirishga qaratilgan islohotlar to'raligicha inson manfaatlariga xizmat qilib, har bir fuqaroning hayotini to'kis, baxtli bo'lishini kafolatlamogda. «Mahallabay» ishlash tizimi bugungi kunda aholini jadal kechayotgan

islohotlarning ishtirokchisi hamda iqtisodiy, ijtimoiy muammolarning ijobiy yechimlarini ishlab chiqishda eng oqil yo‘l va konseptual yo‘nalish sifatida fuqarolarning taqdirini tubdan yaxshi tomonga o‘zgartirilishga sabab bo‘lmoqda.

«Mahallabay» ishlash tizimi band bo‘lmagan aholini, kafolatli ish bilan ta‘minlash yoshlar, xotin-qizlarni ijtimoiy faollashtirish, ularni kasb hunarlar, tadbirkorlik sirlarini o‘rgatuvchi kurslarga jalb qilish, yoshlarning startap g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlab, imtiyozli kreditlar ajratishni yo‘lga qo‘yish bilan birga har bir mahallaning «o‘sinh nuqtalari»ni aniqlash orqali yangi tadbirkorlik loyihalarini ishlab chiqish, jumladan, aholi turmushining farovonligini ta‘minlash uchun «drayver» loyihalarini amalga oshirish orqali mahallaning iqtisodiy o‘sinh imkoniyatlarini kengaytirishga hissa qo‘shish nazarda tutilgan. Bu borada mamlakatimizda xotin-qizlarning qonuniy manfaatlarini, huquqlarini himoya qilish, barcha jabhalarda faolligini oshirish, xotin-qizlarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan xotin-qizlarning mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur ishlab chiqilgan”[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chopa-tadbirlar to‘g‘risida”gi [2] qaroriga muvofiq, ayollarning tadbirkorligi, mehnat huquqi bo‘yicha turli yengilliklar berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

O‘zbekiston kontekstida esa mahalla institutini davlat boshqaruvi tizimidagi ahamiyati, jamoaviylik asosida fuqarolarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, inson kapitali bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha M.Bekmuradov, Sh.Ochilov, Ya.Ollamov, Q.Quranboyev, N.Latipova, R.Ubaydullayeva, A.Umarov, E.Xalilov, A.Xolbekov, T.Matiboyev X.Husanova, E.Ostonov, A.J.Najmiddinov kabi olimlarning tadqiqot ishlari alohida e‘tiborga molik. Shu bilan birga, mahallabop va manzilli yondashuvning ijtimoiy tizimga ko‘rsatayotgan ta‘siri, mahallaning sotsiallashtirish jarayonidagi funksional o‘rni, shuningdek, fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni shakllantirishdagi roli sotsiologiya nuqtayi nazaridan yetarlicha o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotni nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilish maqsadida - anketa so‘rovi, ekspert so‘rovi, eksperiment, tizimlilik, tuzilmaviy-funksional yondashuv, tarixiylik, qiyoslash usullari hamda metodik yondashuvlarda foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Mahallabay ishlash tizimi subyektlari tarkibidagi xotin-qizlar masalalari bilan bevosita shug‘ullanuvchi xotin-qizlar faolligining o‘rni va roli muhim ijtimoiy ahamiyatga egadir. Bugungi kunda mamlakatimizdagi mavjud 9400 mahallada faoliyat yuritayotgan mahalla xotin-qizlar faollari o‘zlarining ayollarning barcha toifalari vakillari uchun nechog‘li zarur ekanliklarini

amalda isbotlab kelmoqdalar.

Dissertant

tomonidan ekspertlar bilan mazkur lavozimning nechog'li ijtimoiy zarurligini o'tkazilgan so'rov natijalari ham tasdiqladi.

Mazkur lavozim joriy etilganidan o'tgan ikki yil davomida mahallalarda, xususan, mahallalardagi xotin-qizlarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Bir necha faktlar keltiramiz. "Ayollarning doimiy ish bilan bandligi umumiy bandlik majmuida 21 foizdan 34 foizga ko'tarilgan" [3]. Yoki, "Oliy ta'limga o'qishga kirish hajmida 37 foizdan 51 foizga o'sgani, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi ayollar nufuzining 9 foizdan 21 foizga oshgani ayollarning ijtimoiy nufuzi ko'tarilishida har bir mahalladagi xotin-qizlar faolligining ham muayyan hissasi bordir" [4].

Xotin-qizlar faoli navbatda viloyat, tuman, shahar hududlaridagi xotin-qizlarni oila, turli jamoalar, mahalla, qolavepsa, mehnat jamoalarida ularni faollashtirish ijtimoiy jihatidan qo'llab-quvvatlash bilan birga oilalardagi hamjihatlik bilan uyg'unlashtirish, tarbiyani yaxshilash, oilaning ma'naviy muhitini yuksaltirish borasida keng ko'lamli faoliyat olib borishmoqda. Xotin-qizlar faoli o'z vakolatidan kelib chiqib, mahallalarda o'zi va "beshlik" bilan hamkorlikda har bir oilaning ijtimoiy, iqtisodiy ahvoli bilan bevosita tanishish va ularni o'zgartirish, yanada yaxshilash jarayonida tashabbuskor va ijro etuvchi maqomda ish tutmoqdalar.

Mahallada xotin-qizlar faollari javoblariga ko'ra ushbu mexanizmni qanday amalga oshirilayotganligi haqida fikrlari quyidagicha bo'ldi;

- mahalla fuqarolar yig'inida faoliyat olib boruvchi xotin-qizlar faoli oilalardagi o'rganilgan holat haqida yagona elektron platforma [5] baza yaratilgani faoliyatni real baholash imkonini berayotgani;
- oilalardagi xotin-qizlar soni, ulardan mehnatga layoqatlilari, mehnat layoqatini yo'qotganlar, imkoniyati cheklangan ayollar soni, necha nafari ish bilan band, qancha tadbirkor, necha nafari ta'limda va h.k. shu kabi ma'lumotlar bevosita oilalarga kirib o'rganilayotgani;
- har bir oilaning madaniy, iqtisodiy, psixologik holati, yosh oilalardagi ayollarning mavqeyi shaxsbay kesimida o'rganish yo'lga qo'yilganligi;
- mahalladagi "beshlik", xususan, xotin-qizlar faolining ish samaradorligiga ham davlat, ham jamiyat e'tibor qaratayotganligi;
- xotin-qizlar faoli ishga davlat tashkilotlari va jamiyat tomonidan ko'mak berilayotganligi;
- xotin-qizlar faollari uchun ilg'or tajribalarni o'zlashtirish bilim va malakasini uzluksiz oshirib borish tizimini yo'lga qo'yilganligi va hk.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 69 maqsadi "Xotin-qizlarni qo'llab-

quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash" deb nomlangan bo'lib ayollarning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlashda quyidagi 7 ta ustuvor yo'nalish belgilangan.

"Birinchisi, xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka yo'l qo'ymaslik va ularni oldini olish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

Ikkinchisi, gender tenglikni ta'minlash, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish;

Uchinchisi, xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish;

To'rtinchisi, xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash;

Beshinchisi, turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'raytirish;

Oltinchisi, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash;

Yettinchisi, "Ayollar daftari" bilan manzilli ishlash, mutasaddi tashkilotlar tomonidan xotin-qizlarning muammolari o'z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish" [6].

Bu borada 2025-yil mart oyida Samarqand viloyatining Samarqand shahar, Urgut tumanida "Ayollar maslahat kengashlari" va mahalladagi xotin-qizlar faollari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma berilgan savollar berilganda quyidagicha javoblar olindi:

Bugungi kunda har bir mahallada yo'lga qo'yilgan huquqiy haftalik o'tkazilishi katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Mahallalardagi xotin-qizlarni qiynab kelayotgan savollarga ularning huquqshunoslar tomonidan har tomonlama asosli javoblar berib borilishi ularni tazyiqlarga nisbatan qarshi tura olish xususiyatini shakllantirsa, ikkinchi tomondan xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga imkon yaratadi (81,8 foizi aynan shu fikrni qayd etdi).

Mahallalarda so'nggi uch yil mobaynida amaliyotga kiritilgan yangi yondashuv, ya'ni xotin-qizlarga nisbatan tazyiq, zo'ravonliklarni xonadonbay va shaxsbay usullarida ishlashni oilalarga borib suhbat olib borilishi ushbu muammoning asl sabablarini tizimli o'rganish ayollarda barqaror ijtimoiy tarkib topishga imkon yaratdi (74,4 foizi aynan shu fikrni qayd etdi).

Hokimliklar tashkil etilgan xotin-qizlar uchun maxsus ochiq eshiklar kuni ham oilaviy tazyiqlar, yoki boshqa shaxslar tomonidan bosimga duch kelgan va xo'rlangan ayollar bevosita xotin-qizlar bilan ishlashga ma'sul bo'lgan turli shaxslar bilan uchrashish va o'z muammosini operativ hal etish imkoniga ega bo'lmoqda. Aynan ana shu jihat so'ralganlar tomonidan muhim jihat sifatida qayd etildi (41,6%).

Ma'lumki mamlakatimizda gender masalasiga katta ijtimoiy ahamiyatga ega holat ham jiddiy muammo sifatida qaralmoqda, ya'ni har bir sohada xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqliligini ta'minlash, xotin-qizlar ham oila qurish bilan birga ishlash, ta'lim olish, sayohatga borish, dam olish va shu kabi ko'pgina huquqlariga ega. Ba'zi oilalarda xotin-qizlarning kamsitilishi, turli tazyiq, boshqalar tomonidan zo'ravonliklarga uchrash holatlari ko'rayib borayotgan edi. Bu kabi holatlarni oldini olish maqsadida gender tengligi, ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish muhim islohotlardan sanalmoqda (31,3 foizi aynan shu fikrni qayd etdi).

Lekin shunday bo'lishiga qaramay, tadqiqot natijalari mahalla hududida yechilishi kerak bo'lgan masalalar ham mavjud.

Birinchi navbatda, oilalarda xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish bilan birga farzandlarga bilim berishdagi faol ishtiroki, bu borada ularning burch va majburiyatlarini o'rgatish ham muhim.

Ikkinchi navbatda, gender tenglik masalasi ish faoliyatida, ayollarning huquq va erkinliklarini ta'minlashda ayollarning shaxs sifatida o'zini baholashi ham muhim bo'lib, onaning hurmati, oilada, ayolning o'z o'rnini anglashi maqsadga muvofiq.

Uchinchi navbatda esa o'g'il va qiz bolani hayotga tayyorlashda milliy mentalitetimizdagi "qiz bola birovning xasmi" degan yondashuv haligacha barham topmagani ham har beshtadan bir nafar respondent tomonidan qayd etildi.

Xulosa va takliflar

Xotin-qizlarning ijtimoiy, psixologik muammolarini yechishda endilikda mahalla o'zini-o'zi boshqarish organlarida psixolog xodimlarining shtati yo'q ekanligi mahallabay ishlash tizimini takomillashtirishdagi yechilishi kerak bo'lgan vazifalardan hisoblanadi.

Mahallabay ishlash tizimini yanada takomillashtirishda mahalla o'zini-o'zi boshqarish idoralariga kamida bir nafardan psixolog talab etilishi ekspertlar fikri asosida dalillash mumkin. Bugungi kunda nafaqat xotin-qizlar, balki, yosh yigitlar, erkaklar hattoki yoshi ulug' insonlar ham psixologik, ehtiyoji mavjud. Axbopotlar makonida axborot almashinuvi shiddat bilan tezlashgan davrda, bu holat kuzatilishi tabiiy hol, lekin ushbu holatning oldini olish, avj olib ketmasligiga yo'l qo'ymaslik muhim.

Mahallabay ishlash tizimini takomillashtirishda ushbu muammolar o'z navbatida, har bir xodimning o'z vazifasidan kelib chiqib ishni tashkil qilishga e'tibor qaratish kerakligi hamda mahallabay ishlash tizimidagi har bir xodim o'zining vazifalari doirasidan chetga chiqish holatlarini haddan tashqari ko'p ishlash muhitini yuzaga keltirish lozim, deb o'ylaymiz.

Xulosa qilib aytganda, mahallalarda faol xotin-qizlar kengashlari, maslahat guruhlari va oilaviy muammolar bo'yicha maslahat markazlari faoliyatini kuchaytirish, gender muvozanatini ta'minlashda muhim mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa faqat ayollarning huquqlarini

amalga oshirish emas, balki jamiyatda barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashda ham muhim omildir.

Shunday qilib, xotin-qizlar faolligini oshirish masalasi mahallabop ishlash tizimida faqat ijtimoiy tenglikni emas, balki inson kapitalini to'liq ro'yobga chiqarishni ham ta'minlovchi strategik vazifalardan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi PF-87-son Farmoniga 1-ilova // <https://lex.uz/docs/-5899498>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4235-son qarori // <https://lex.uz/docs/-4230944>
3. O'zbekistonning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish to'g'risida ixtiyoriy milliy hisoboti. – T.: O'zbekiston 2023. 45 bet. https://api.mf.uz/media/document_files/02_05_2023uzb.pdf
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/4212>
5. "Aziz-ayol.uz" yagona interaktiv milliy platformasi. <http://aziz-ayol.uz/>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni 69 maqsad. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash. // <https://lex.uz/ru/docs/5841063>
7. Усанов Р. Т., Хаккулов Н. К. Из истории изучения проблемы «ненасилие» // Экономика и социум. – 2024. – №. 6-2 (121). – С. 1406-1413.